

## USMON AZIM SHE'RIYATIDA FOLKLORIZM

**Jizzax viloyati Zarbdor tumani**  
**Jizzax davlat pedagogika institute**  
**o'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti**  
**Zarbdor tumani 13-maktabning**  
**ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi**  
**Bolbekova Rayxon Raxmatulla qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she'riyatida folklorizm asosidagi metaforalarning talqini ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shoirning folklorizm yo'nalishidagi mahorati o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** *Semurg`, metafora, stilazatsion folklorizm, metaforik ko`chim, mif, folklor, shayton, mifologik obrazlar, farishta, ajdar.*

XX asrning 70-80 yillari o'zbek she'riyatida folklorga murojaat qilish, folklor an'analari va motivlaridan foydalanish kuchaydi. Ma'lumki, folklor ta'sirida e'zma adabiyet namunasiga folklor an'alariga xos hodisalarning badiiy mahorat bilan singdirilishidan, qayta talqin etilishidan folklorizmlar yuzaga keladi<sup>1</sup>. O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodida folklor obrazlari orqali ijtimoiy davr manzaralarini e'ritish ijodkor uslubida o'ziga xos o'rinda turadi. Zero, folklorga xos har bir obrazning o'ziga xos muhim belgi va xususiyatlari mavjud. Ayniqsa, mifologik obrazlarning metaforik ko'chim xususiyati she'riyatda yaqqol aks etadi. "Metafora mifologik dunëqarashni izohlashda faol ishtirokchi, mifik tasavvur esa, ramzlarsiz sharhlanmaydi"<sup>2</sup>

Shayton teomifologik obrazi Sharq va G'arb adabiyetida faol qo'llaniladi. "Shayton" so'zi arabcha bo'lib, odamlarni din yo'lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi e'vuz ruh e'ki e'vuz ruhlarning boshlig'i, iblis deb

<sup>1</sup> Sharopova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar: Filol.fan.nomz...dis avtoref. – Toshkent, 2008. – B.10

<sup>2</sup> Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон, 2018. – Б. 4

ko`rsatilgan. Ko`chma ma`noda ayèr, quv, aldanchi odamga nisbatan ishlatiladi. Shoir ushbu obrazdan sobiq mustabid tuzumdagi ijtimoiy haèt manzaralarini yaratishda foydalanadi.

Zaqqum bosgan elning tuzida,

Hali **shayton** yaratgan kunduz.

Faqirlarning nursiz ko`zida

So`nib borar eng so`nggi yulduz.

“Zaqqum bosgan el”ga hukmron kuch – shayton, u yaratgan “kunduz” – Haèt og`ir, “faqirlarning nursiz ko`zida”, “eng so`nggi yulduz” – insonlarning orzu-umidlari “so`nib boradi”. Demak, *shayton* xalqimizni asriy tutqinlikda saqlagan sobiq hukmron kuch – Mustabidlik ifodasi. Ijodkor davr haqiqatlarini yashirin o`xshatishda namoèn qilarkan, shayton metaforasidan insonlardagi ayrim illatlarni ochib berishda ham foydalanadi.

a) Ayèr, uddaburon shaxsga nisbatan:

Kichkina **shayton** boshimga chiqding

Kichkina oèqchalaring bilan.

b) yuqori amaldorlarga nisbatan:

Qasrlarda o`zlarini o`ylab

Qurishadi **shaytonlarmajlis**.

O`zaro zid bo`lgan shayton va farishta obrazlarini ènma-èn keltirib, parallelizm qo`llanilgan o`rinlarda shoir o`zi yashaètgan jamiyatda Ezgulik va èvuzlik, yaxshilik va èmonlik, oqibat va adolat haqidagi fikrlar ifodasini beradi.

**Farishta** ochmadi ko`nglim daftarin,

**Shaytonlar** darsida sharh bo`lib yuribman.

Nega farishta ko`ngil daftarin ochmaydi? Chunki atrofda èmonlik, sotqinlik, rièkorlik, èlg`on va aldov ko`paygan. “Shaytonlar darsi”da haqiqat, adolat umidi yo`qqa chiqqan. Yovuzlik timsoli bo`lgan “shayton”ning mudom yo`llari èrishadi,

ezgulik dunəsi esa zulmatdan oson chiqqan emas:

Oh **hayton** yo`llari

Yana èrishgan,

Shalvirab qo`llari kuyar farishta.

Ma'lumki, adabiètda farishta obrazi aèl siymoda gavdalantiriladi. Shoir mazkur metaforadan aèl, pokiza aèl va èlg`iz aèl obrazini yaratadi.

Ko`milgansan tongdan kechgacha ishga,

Taqdir o`zgartirmoq bo`lgan farishta.

Uning "Fayzulla Xo`jayev monologi" she'rida begunoh insonlar timsoli farishta metaforasida berilib, lirik qahramon vijdonidagi umrlik azob ifodalanishi she'rning ta'sirchanligini oshirgan.

Qo`rqinchlisi shuki, farishtalar ko`ziga

Tikka qaray olmay o`layapman.

Xalqimiz og`zaki ijodining xaèliy-fantastik tasavvurlarga boy janri ertaklarda zulmkor, odamni yeb qo`yuvchi ajdar obrazi keng uchraydi. Ajda, ajdarho, yuho ko`rinishdagi mazkur mifologik obrazlar èzma adabiètda èvuz, kuch sifatida salbiy metaforik ko`chim sifatida qo`llaniladi. Uning "G`aroyib Ajdarho"ertak-dostonida suujet va obraz o`zgaradi. Ya'ni bir podshohning yurtida ajdarho paydo bo`lgani, ammo podshohni saroy aènlari, vazirlar-u i`nom olgan jami beklari shunday kulfatda tashlab qochadi. Uning ènida qolgan, kurashga tayèr turgan oddiy xalqning sadoqatini ko`rib, ularning boshiga podshoh hech bir zulm qilmay o`z qizini tavon to`lash uchun qirq qorin, qirq tomoq, qipq bosh – ajdarho huzuriga jo`natadi. Podshohning qizi ham mardlarcha o`ziga boqib turgan saksonta ko`zli ajdarhoga "Men keldim. Xalqim deb Bo`lgani qurbon. Meni ye! – deydi. Qirq yuzli ajdar bu mardlikdan kulib, u faqatgina xalqiga èv bo`lgan podshohlikka ofat bo`lishini aytadi: "Xalqiga èv bo`lsa Agar podshohlik, U yurtga, albatta, Kelar bir ofat. *Devmi,*

*ajdarhomi – Bir baloyu bad*<sup>3</sup>.

XX asr o`zbek she'riyatida istiqlol, hurlik ramzini ifodalashda Semurg` mifologik obrazi keng qo`llanilgani kuzatiladi. Rauf Parfi “Semurg` qushim, podsho qushim, xush kelding, Yetti gumbaz, yetti vodiy sarvari” misralarida Semurg` xalqimizning asriy orzusi bo`lgan mustaqillikni ifodalangan. Usmon Azim she`rlarida ushbu obraz lirik qahramonning do`sti, yaqini ma`nosini ifodalaydi:

Semurg` bo`lolmassiz,

Mensiz do`stlarim .

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim she'riyatida stilazatsion folklorizmlar metaforik ko`chim sifatida qo`llaniladi. Shunga ko`ra ularni folklorizm asosidagi metaforik obrazlar deb talqin qilish mumkin. Folklorizm asosidagi metaforik obrazlar shoirga davr manzaralari va insonlardagi salbiy illatlar, turmush mashaqqatlarini ifodalash bilan birga davrning ijtimoiy manzaralarini tasvirlashga hamda Hurlik g`oyalarini ilgari surishga imkon bergan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharopova L. XX asrning 70-80-yillari o`zbek she'riyatida folklorizmlar: Filol.fan.nomz...dis avtoref. – Toshkent, 2008. – B.10.
2. Pardayev Z. Istiqlol davri she'riyatida xalqona pafosning yangilanishi. Filol. fan...falsafa d-ri (PhD) diss... –Toshkent, 2017. – B. 33.
3. Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон, 2018. – Б. 4.
4. Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон, 2018. – Б. 87.
5. Azim U. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995. – B. 232.
6. Azim U. Fonus. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 75.

<sup>3</sup> Azim U. Bor ekan, yo`q ekan. – Toshkent, Cho`lpon, 1995. – B. 32

7. Azim U. Bor ekan, yo`q ekan. – Toshkent, Cho`lpon, 1995. – B. 32.
8. Azim U. Kuz – Toshkent: G`afur G`ulom, 2001. – B. 371.